

Globallashuv sharoitida
ona tili va adabiyotning
ijtimoiy ahamiyati va uni saqlash
tamoyillari

XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA TO'PLAMI



Qo'qon-2025



**“GLOBALLASHUV SHAROITIDA
ONA TILI VA ADABIYOTNING
IJTIMOIY AHAMIYATI VA UNI
SAQLASH TAMOYILLARI”**

**MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA**



Qo‘qon universiteti direktori
G‘.E.Zohidov tahriri ostida

TAHRIR KENGASHI

1. **Zeboxon Qobilova** – Qo‘qon universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, filologiya fanlari doktori, professor
2. **Shuhrat To‘xtasimov** – O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi rektori, professor.
3. **Akhlaq Ahmad Ahan** – Jawaharlal Nehru universiteti Fors va Markaziy Osiyo tadqiqotlari markazi rahbari, professor.
4. **Maqsud Asadov** – O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktor o‘rinbosari, filologiya fanlari doktori, professor.
5. **Bahodir Karim** – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, filologiya fanlari doktori.
6. **Minhojiddin Mirzo** – O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisining birinchi o‘rinbosari, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori.
7. **G‘ayrat Majidov** – O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi o‘rinbosari.
8. **Botirjon Ergashev** – Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti direktori.
9. **Hulkar Hamroyeva** – O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi professori, filologiya fanlari doktori.
10. **Shahlo Naraliyeva** – Qozog‘iston Respublikasi Jumabek Tashenev universiteti Xalqaro hamkorlik departamenti direktori, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).
11. **Rustam Sharipov** – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Jadidshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi direktori, filologiya fanlari doktori.
12. **Salimjon G‘aniyev** – Qozog‘iston Respublikasi Amir Temur jamg‘armasi xalqaro bo‘lim boshlig‘ining o‘rinbosari, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

To‘plamni nashrga tayyorlaganlar: Sh.Jumanova, M.Imomaliyeva, N.Tursunova, Sh.Payg‘amova, S.Ergasheva, N.Javharova, X.Raimova.



ishlari ayni ana o'sha harakatlantiruvchi omil ruknlaridandir. Shunday ekan, B. Akramov ilmiy tadqiqotlari natijalariga murojat qilish ko'zlangan maqsad natijalari garovidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Botirxon Akram. Hayratlar olami. - Toshkent. 2014
2. Botirxon Akramov. Fasohat mulkining sultoni. - Toshkent. 1991
3. Sadriddin Ayniy. Asarlar. 8-tom. - Toshkent. 1967. B-28-29
4. Aziz Qayumov. Dilkusho takrorlar va ruhafzo ash'orlar. Toshkent. 2014.
5. Sultonmurod Olim. Naqshband va Navoiy. Toshkent. 1996. B-100

JADIDCHILIK HARAKATIDA AYOLLARNING ROLI

Xasanova Barno Yusupovna,

Qo'qon davlat universiteti dotsenti, fil.f.f.d (PhD)

Annotatsiya: Maqolada jadidchilik harakatida ayollarning o'rnini masalasi yoritilgan. Jadidlar tomonidan qizlar va ayollarni o'z tilida yozish va o'qish, savodini oshirish kabi g'oyalar ilgari surilganligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: jadidchilik, ayollar ijodi, maorif, ma'rifatparvarlik, g'oya.

XX asr o'zbek adabiyotiga tamal toshini qo'yganlardan biri Hamza Hakimzoda Niyoziy “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari” dramasida Maryamxon tilidan “Shariatda jabr harom!”, “Shariatda adolat bor”, “Islomiyat o'lmaydi” deydi. Ijodkor Maryamxon ezgu-niyatlariga jadidona g'oyalarni singdirib, o'qish va o'qitish ishlariga ayollar rag'batini targ'ib qiladi. “Yangi saodat” nasriy asarida, “Maysaraning ishi” dramasida va bir qancha lirik she'rlarida ayol zakovatining nuri har qanday zulmatni yoritishga qodir ekanini ko'rsatib beradi. Jadidlar xayolida xotin-qizlarni bilimli qilib tarbiyalash butun Turkiston halqi madaniyatini rivojlanishiga hissa qo'shishi tayin edi. Shu asnoda qizlar va ayollarni o'z tilida yozish va o'qish, savodini oshirish kabi g'oyalar ilgari surildi. So'fizodaning “O'qing, onalar”, “O'zbek xonimiga”, “Xonimlar isminda”, “Muslimalar” asarlarini eslashimizni o'ziyoq fikrimizga dalil bo'ladi.

Jadidlar Rus imperiyasi davrida turk tilidagi nashrlarda ayollar ta'limi, turmush qurish yoshi va ayollarning ommaviy roli haqida o'z fikrlarini bildirib kelishgan. Bu keyinchalik, 1920 yillarda o'zbek faol ayollarini o'z islohot dasturlarini ishlab chiqishida yo'nalish ko'rsatgandi.

XX asrning 10-yillarida ichkaridagi ayollarning ruhi-ahvolidan



xabardor qiluvchi, xat-savodi bor ayollar oz bo'lsada ko'rina boshladi. Jumladan, 1906 yilda qo'qonlik yosh ayol - Tojiya birinchi turk tili ayollar jurnaliga xat yozib, turkistonlik musulmon ayollarning ahvoli haqida shikoyat qilgan: *“Hurmatli Shafiqa xanum, biz kamtarona holda quyidagilarni ma'lum qilamiz...Hammaga ayon bo'lsa kerak, bugunda Rossiyada erkinlik, huquqlar, o'sish va islohotlarga katta ahamiyat berilayapti. Musulmon ayollari ham o'ziga xos haftalik nashrga ega va ular o'z fikr-mulohazalari, savollari va takliflarini yozib yuborishga qodirligi ma'lum. Bunga faqat barakallo deymiz! Ammo, biz Rossiya markazida faoliyat ko'rsatayotgan musulmon ayollariga minnatdor holda, bu yerda o'z vazifalarimizni ayni darajada bajara olishga imkonimiz yo'qligidan afsusdamiz. Boshqalar astoydil harakat qilarkan, biz, Sartiya musulmon ayollari ko'p narsadan bexabar, hamon uyqudamiz. Ro'znomaning faqat bir necha satrlarida, biz, Sartiya musulmon ayollarining Qrim va Qozon ayollariga nisbatan o'z huquqlarimiz haqida bilimga ega emasligimiz haqida yozilsaydi! Agar bizning ahvolimiz haqida bayon qilinsa, kelajagimiz islohotlar orqali yaxshilanishi mumkin va biz o'z huquqlarimizga ega bo'lardik. Biroq bu amalga oshadimi? Ox, bu qashshoqlik! Biz hammamiz ilm va ta'limga muxtojmiz! Biz hozir bilim olmasak, kelajakda ham buning iloji bo'lmaydi. Faqat yuzdan bir musulmon ayoli yozish va o'qishni bilishini ta'kidlash lozim. Bu jahonda biz kabi musulmon ayollaridek huquqlaridan mahrumlar bo'lmasa kerak...Biz o'z farzandlarimizni o'zimiz kabi ilmsiz qilib tarbiyalashni istamaymiz. Biz, farzanlarimiz uchun qizlar maktabi ochishga urinayotgan No'gay o'qituvchilariga yordam qila olmayapmiz. Bizning ilm olishga bo'lgan urinishlarimiz bizga yo'l ochib bermay, qiyinchilik tug'dirib, dong qotib kolganimiz tan olinishi zarur. Agar shu yo'lda davom etadigan bo'lsak, bir kun, biz, musulmon ayollarining nomi tarix sahifalarida nafrat bilan tilga olinishi tayin. Bizga o'z holimizni o'zgartirishga, islohotlarni amalga oshirishga, (ulardan) o'rnak olishga izn bering! Farzandlarimiz, o'g'il va qizlarimizni No'gay maktabiga yuborishga yo'l bering!”[com.tarix]*

Tojiyaning jurnal muharririga yo'llagan maktubi Turkiston ayollarining inqilobdan oldingi kayfiyatini bildirishi bilan nihoyatda muhim hodisa sanaladi. Xatda Jadidlar tomonidan o'sha paytlarda muhokama qilinayotgan muammolar ko'tarilgan, ammo ular Tojiya tomonidan ayollar muammosi sifatida ta'kid etilgani juda ham noyobdir. Tojiya, Sartiya (ya'ni, o'troq Turkistonlik yoki O'zbek) ayollarining o'z huquqlarini bilmasligi va ularni qutqarishning yagona yo'li – bu ularga zamonaviy ta'lim berish ekanligiga alohida urg'u beradi. Uning murojaati Jadidlar chaqiruvi, ya'ni islomiy ta'limni zamonaviy, g'arb ta'limiga munosib tarzda o'zgartirishga undaydi. Tojiyaning fikr va g'oyalari uning



islomiy hayot va turkiy nashr bilan aloqalari borligini aks ettiradi. U o‘z murojaatida Rossiyadagi musulmon ayollari, ya’ni tatar millatiga mansub ayollarning harakatlarini nazarda tutgan. Bunga sabab, u o‘zini musulmon ayollar muhitida ko‘rib, muammolarga yechim kengroq islomiy jamoada topilishi mumkinligiga ishongandi.

1900-yilda Qo‘qonda to‘rtta nashriyot uylari, bir necha kitob do‘konlari mavjud bo‘lib, yangi uslubdagi Jadidlar maktablari bir qancha maktab va madrasalar qatoriga qo‘shilgandi. Tojiyaning, agar ayollar zamonaviy ilmga ega bo‘lsa, ijtimoiy muammolardan xalos bo‘lishi to‘g‘risidagi munozaralari keyinchalik, ikkinchi o‘n yillikdan so‘ng targ‘ibot etilgan munozaralarning ayni mantiqqa ega ekanligini kuzatish mumkin. Jadidlarning ayollar hayotini takomillashtirish va yangi, zamonaviy ta’limni targ‘ib qilish harakatlari ba’zilar tomonidan shikoyatga sabab bo‘lgandi. Xotin qizlarni o‘qib, ta’lim olishini targ‘ib etish harakatlari diniy-mutaassib kuchlar tomonidan g‘azabli norozilikka duchor bo‘lgandi.

1907-yilda musulmon yana bir turkistonlik ayol Nojiya Duma musulmon a’zolariga maktub yozadi. U o‘z maktubida musulmon ayollarining erkaklar tomonidan to‘rt devor orasida qamalib qolgani va shariyat ayollarga tijorat bilan shug‘ullanish va Hajga sayohat qilish kabi huquqlarni berishini, Istanbul va Misr ayollari bu huquqlardan foydalanayotganliklari haqida shikoyat qiladi va Dumaning musulmon a’zolaridan turkistonlik ayollarga bu huquqlarni ta’minlashlarini talab qilgan holda o‘z fikrlarini ochiq holda bayon etadi.

1916-yilda Rus ma’muriyatiga qarshi Turkiston shahar va qishloqlari bo‘ylab isyonlar ko‘tarildi. Bu holat tarixda birinchi marta ro‘y bergan, o‘ziga xos, ayollar qatnashgan isyon edi. Turkiston ayollari ilgari hech ommaviy chiqishlarda va qo‘zg‘olonlarda qatnashmagan edi. 1922-yilning kuzida Germaniyaga tahsil olish uchun Turkiston Respublikasi «Ko‘mak» jamiyati tomonidan yo‘llangan 16 nafar talaba orasida Xayrinisa Majidxonova alohida ajralib turar edi. Xayrinisa dastlab Miroboddagi yangi maktabda tahsil olib, rus va nemis tillarini o‘rgandi. Undagi dunyoqarashining shakllanishida Turkiston jadid matbuotining, shuningdek, bu vaqtda birinchi o‘zbek xotin-qizlar bilim yurtida o‘qiyotgan opasi Oyposhshaxonning ham ta’siri katta bo‘ldi. 1922-yili “Turkiston” gazetasida chop etilgan Xayrinisa Majidxonovanning maqolasida endigina 17 yoshni qarshilagan qizning Vatan istiqboli haqidagi orzu-istaklari o‘rin oldi. Maqolani o‘qir ekansiz, eng avvalo, o‘tgan asrning boshida yashagan bir o‘zbek qizining tarixiy tafakkuri naqadar kengligi, Vatan taqdiri oldida o‘zini qanchalik daxldor sezishi ko‘pchilikni hayratga solishi tabiiy. Oradan qariyb yuz yil o‘tganiga qaramay, maqolada ilgari surilgan fikrlarning ba’zilari hamon dolzarb ekani e’tiborimizni tortadi. *“Turkistonning dunyo savdo maydonida tutqon vaziyati XVII asrdan beri tuban darajada qolib keldi. Bu asr umuman*



musulmon mamlakatlarining tanazzul davri bo‘lib, tanazzulning ham ko‘p sababi karvon yo‘llarining ahamiyati ketib, g‘arblilar tarafidan dengiz yo‘llarining yuksaltirilishi edi.

XIX asrda ham Turkiston G‘arbiy Ovrupodan uzoq bo‘lg‘onlig‘i uchun, taraqqiyot tomonidan boshqa musulmon mamlakatlaridan ham tuban darajada turdi. XX asrning boshida ham qo‘shnimiz bo‘lgan Eron xalqi siyosiy fikrlar bilan sug‘orilib, o‘z elida sanoat turg‘izish va chetlarning ta‘siridan qutulish yo‘lida qon to‘kkani muddatda bizning Turkiston tinch uxlamogda edi... Faqat Russiyadan temir yo‘l kelib, savdo maydoni kengaydi... Bundan ochiq anglashiladirkki bizning moziyimizni porloq qilg‘on – elimizdan o‘tgan karvon yo‘li bo‘lsa, istiqbolimizni porloq qilg‘uchi, elimizni jahon savdo maydonig‘a tutoshdirg‘uvchi ulug‘ temir yo‘ldir. Ular bizning savdomizni kengaytur, bizga boyliq va obodliq berur va o‘zimizga katta sanoat turg‘azishga imkon ochar”, – deb yozgandi o‘smir Xayrinisa. Yosh Xayrinisa maqolasidan uning o‘z vatani kelajagi uchun qanday kuyungani seziladi. “Turkiston iqlimining qizg‘inlig‘i va yerining munbit (hosildor)ligi uni doim qiymatlik hosilot beruvchi ziroat mamlakati ravishida qoldirg‘usidir. Ikkinchi tomondan Turkiston tog‘larining ma‘danga boylig‘i bunda tog‘ sanoatining yuksalishiga sabab bo‘lg‘usidir. Bu ikki asos – hayotni ta‘min qilish yo‘llarining yuksalishi natijasida (paxta zavodlari, ipak fabrikalari, ma‘dan zavodlari, shekilli) katta sanoatning boshqa xillari ham yuksalgusidirlar.

Turkistonning tabiiy boyliqlarini ishlata olg‘ali, katta sanoatni turg‘izgali va natijada yangi temir yo‘llar o‘tkazgali kuchi yetsun hozirgi xo‘jalikdan ortib qolib to‘plang‘on boylig‘ning bo‘lishi kerak. Hozirgi ziroatning mahsulotini ortdirish uchun birdan-bir chora bo‘lsa ziroatda har xil yangi ishlab chiqorish usullari, yangi qurollar va mashinalarni qo‘llanishidir. Hozir bu qurollarni Ovrupolilardan oltun barobariga olishga to‘g‘ri kelganidek, kelgusida ham har xil sanoat qurollarini Ovrupolilardan sotib olishg‘a majbur bo‘lamiz. Mashina qancha qimmat bo‘lsa ham uni qo‘llashimiz kerak. Chunki, ul bizning boylig‘imizni ortdira oladir. Buni G‘arb davlatlarining hayotida mashinaning tutqon o‘rni isbot qiladir”, – deydi u. Bu fikrlar Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Tavallo, So‘fizoda kabi yurtparvarlar fikri bilan naqadar uyg‘unligini ko‘rish mumkin. Shuningdek, maqolada Turkiston jamiyatining ma‘naviy qiyofasiga ham to‘xtalib: “... bizning bu dardimizning ham buyuk qurollari matbuot, maktab va teatrdir. Bizda bularning har qaysisi bor. Lokin, ular o‘zlarining tarixiy vazifalarini yeriga yetkaza oladirk‘on darajada emasdirlar. Bizning yangi maktablarimizdan shul vaqtg‘acha xalq hurkib keldi. Matbuotdan uzoq turdi. Teatrni anglamadi. Chunki, bularning har qaysisi o‘zining asosiy vazifasining haykal mujassami bo‘la olmadi. Xalqning ruhiga ehtiyot bilan yaqinlashib, unga ta‘sir ijro qila olmadi. Har bir xalqning uyg‘onish



davrida g'oyat muhim o'rin tutadig'on bu uch buyuk qurolni o'z vazifalarining ruhi bilan sug'orish bizning navbatdagi ishimizdir... Bizning tadrijiy taraqqiyotimiz shul yo'llar bilan borsa kerak. Aks holda, biz o'z moziyimizdan uzulib xalqning g'urbatda qolishiga sabab bo'lurmiz”, – deb xulosalaydi. 1922 yilning so'ngida Germaniyada tahsil olishga yuborilayotgan talabalar qatorida o'zbek qizlari toshkentlik Xayriniso Majidxonova, Saida Sherahmadboyeva va xorazmlik Maryam Sultonmurodovalar ham bor edi. Bu esa XX asr avvalida Turkistonda ro'y bergan islohotlarda ayollarning roli va o'rni naqadar muhim bo'lganini ko'rsatib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Britaniya kutubxonasi (British Library), “A New Path, A New Dawn: Women's Magazines in 1920s Soviet Uzbekistan,” May 2017, <https://blogs.bl.uk/european/2017/05/a-new-path-a-new-dawn-womens-magazines-in-1920s-soviet-uzbekistan.html>
2. Marian Kamp, “The new woman in Uzbekistan: Islam, Modernity, and Unveiling under Communism” 2006, Vashington Universiteti nashri, AQSH.
3. Jadid ma'rifatparvalik harakatining g'oyaviy asoslari. - T. “Toshkent Islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi. 2016-yil.
4. uzanalytics.com.tarix.

MAISHIY-IJTIMOIY MAVZULARNING BADIY TALQINI

Zumradxon Teshaboyeva,
Renessans universiteti dotsenti v.b, (Phd)

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abduqayum Yo'ldoshevning maishiy-ijtimoiy mavzulardagi qissa va hikoyalardagi obrazlar tahlil qilinadi. Maqolada asar qahramonlarining o'tish davri va bozor iqtisodiyoti sharoitida shakllangan hayotiy xususiyatlari, ularning irodasi, qaror qabul qilish jarayonlari va ruhiy ziddiyatlari o'rganilgan. Sadridin, Nafisa, Sunbula kabi qahramonlarning xarakterlari tafsilotlari bilan ochib berilib, ularning faol yoki passiv pozitsiyalari, ichki ruhiy kechinmalari va voqealarga munosabati ko'rsatib berilgan. Qissa va hikoyalarda inson xarakterining paradoksal va murakkab qirralari, ziddiyatli vaziyatlarda namoyon bo'ladigan xarakter xususiyatlari, hamda ijtimoiy-madaniy muhit ta'siri tahlil qilingan.



Shokirjon DONIYOROV. ZAMONAVIY O‘ZBEK VA TURK ROMANLARIDA FAZOVIIY TAFAKKUR VA MIFOLOGIK TALQIN UNIVERSALLIGI.....	63-67
Zebo QOBILOVA, Muhsim MO‘MINOV. BIR MUXAMMAS XUSUSIDA.....	67-70
Zebo QOBILOVA, Hilola RAIMOVA. AMIRIYONA TASHBEHLAR.....	70-76
Feruza QURBONOVA. HIKOYA POETIKASIDA FOLKLORNING O‘RNI.....	76-80
Muqaddas SAIDAKBAROVA. BOTIRXON AKRAMOV ILMIY FAOLIYATIGA MUNOSABAT.....	80-84
Barno HASANOVA. JADIDCHILIK HARAKATIDA AYOLLARNING ROLI.....	84-88
Zumradxon TESHABOYEVA. MAISHIY-IJTIMOIY MAVZULARNING BADIY TALQINI.....	88-94
Nodira MO‘MINOVA. O‘ZBEK XALQ INONCH AYTIMLARI XALQ OG‘ZAKI IJODINING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA.....	94-98
Abdulaziz QODIROV. ADABIYOTSHUNOSLIKDA OLIM USLUBINING AHAMIYATI.....	98-102
Laylo SUVONQULOVA. USMON AZIM IJODIDA MOTIV OBRAZLARINING O‘RNI.....	102-106
Shirin PAYG‘AMOVA. AMIRIY SHE‘RIYATIDA ETNOGRAFIK FOLKLORIZMNING BADIY KO‘RINISHLARI (CHAVGON O‘YINI MISOLIDA).....	107-111
Dilnoza UMOROVA. KOMIL XORAZMIY G‘AZALLARI ASOSIDA TALABALARINING MA‘NAVIY-AXLOQIY TARBIYASINI RIVOJLANTIRISH.....	111-115
Abdulaziz QODIROV, Gavxar KUCHKAROVA. MUNAQQID USLUB SHAKLLANISHIDA OLIM TILI VA MAHORATINING AHAMIYATI...115-119	

